

O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH BO'YICHA CHORA TADBIRLAR VA TAKLIFLAR

Abdug'aniyeva Zulxumorxon Alijon qizi

TDU Qo'qon filiali iqtisodiyot

(tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi

2- bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12783681>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan siyosatning qanchalik samarali ekanligini, aholining ijtimoiy farovonligini, daromadini oshirish va yashash sharoitlarini yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan chora tadbirlarning natijalari va kelajakda yana qanday rejalarni amalga oshirish kerakligini tahlil qilib ko'rsatishga qaratilgan takliflar xususida fikrlar yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Kambag'allik, ishsizlik, tadbirkorlik, sanoat, korxonalar, subsidiya, kichik va o'rta biznes, hokim yordamchisi, YaTT, xususiy va oilaviy tadbirkorlik.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность политики сокращения бедности и обеспечения занятости населения в Узбекистане, результаты реализуемых мер по повышению социального благосостояния, доходов и условий жизни населения, а также какие еще планы следует реализовать в стране. мнения были высказаны относительно предложений, направленных на показ.

Ключевые слова: Бедность, безработица, предпринимательство, промышленность, предприятия, субсидия, малый и средний бизнес, помощник губернатора, ЯТТ, частный и семейный бизнес.

Abstract: This article analyzes the effectiveness of the policy of reducing poverty and ensuring employment of the population in Uzbekistan, the results of the measures implemented to increase the social well-being, income and living conditions of the population, and what other plans should be implemented in the future. opinions were held regarding the proposals aimed at showing.

Key words: Poverty, unemployment, entrepreneurship, industry, enterprises, subsidy, small and medium business, governor's assistant, YATT, private and family business.

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. 2023-yil 15-mayda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan yig'ilishda kambag'allik darajasi 14% ga tengligi va bu degani 5 milliondan ortiq odam kambag'allikda yashayotganligi ma'lum qilingan edi. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hududiy, tuman, shahar va mahallalarda 2022-yil 1-yanvardan boshlab har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash maqsadida hokim yordamchisi lavozimi joriy etildi [1]. Ular aholining tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi va ularga ajratilgan subsidiyalar va berilayotgan imtiyozlardan to'g'ri foydalanishini nazorat qilish va ularga ko'maklashish bilan shug'ullanishadi. Bundan tashqari aholini kambag'allikdan chiqaruvchi asosiy kuch bu davlat va undagi siyosat hisoblanadi. Bunga yaqqol dalil sifatida Xitoyning kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tajribasi butun dunyoda e'tirof etiladi. Xitoy oxirgi 40 yil ichida 800 million nafar aholini kambag'allikdan chiqarishga erishdi. Buning uchun esa avvalo ta'lim tizimiga, sifatli sog'liqni saqlash tizimiga va arzon uy-joy masalalariga alohida e'tibor qaratdi [2]. Aholining daromadini oshirish, narxlarni barqarorlashtirish, inflyatsiya darajasini

oshishiga qarshi qaratilgan siyosat davlat tomonidan nazorat qilinishi lozim. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, oilaviy va xususiy tadbirkorlikni yo'lga qo'yishda imtiyozlar va subsidiyalarni berish, asosan chetdan import qilinuvchi tovarlarni mamlakat ichida ko'proq ishlab chiqarishni targ'ib qilish asosiy vazifa qilib qo'yilishi lozim. Chunki ushbu omillar nafaqat aholi daromadini oshiradi balki davlatning iqtisodiy o'sishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

MASALA BO'YICHA YECHIM VA TAKLIFLAR

Mamlakatda kambag'allikni qisqartirishda eng asosiy masala bu insonlarning qiziqishlari, dunyoqarashlarini o'zgartirishdir. Ya'ni odamlarda berilayotgan imkoniyatlarni qabul qilish va amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'proq foydalanish istagi bo'lishi lozim. Imtiyozlar berilganligi bu kambag'allik qisqarib qoladi degani emas. Chunki insonlarda xohish, bilim, g'oya va asosiysi o'ziga bo'lgan ishonch shakllansagina natijaga erishish mumkin. Bu nafaqat ushbu masalada balki ta'lim tizimi, biznes va boshqa sohalarda ham muhim hisoblanadi. Buning uchun esa atrofdagi vaziyat, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan sharoit yaratilishi kerak, insonlarni tavakkal qilishi va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda to'siqlarga uchramasligiga yaqqol dalillarni ko'rishi kerak. Mamlakatda erkin bozor iqtisodiyoti yo'lga qo'yilgan bo'lishi, sog'lom raqobat muhiti shakllangan bo'lishi muhim. Nafaqat bozordagi yoki soliqdagi imtiyozlar balki, bojxonadagi bojlarda ham to'siqlarni kamaytirish, bojxonadagi nazoratni raqamlashtirish, ortiqcha vaqt va ovoragarchiliklarni kamaytirish lozim. Misol uchun, oziq-ovqat va boshqa shu turdagi mahsulotlarda bojxona nazorat postida ko'plab sertifikatlar talab etilishi, sanitariya, hujjatlar va boshqa nazoratlarda ortiqcha vaqt va hodimlarning sonini qisqartirish kerak. Eksportda davlat ko'magini kengaytirish, importda ham imtiyozlarni oshirish va aholi uchun zarur turdagi mahsulotlarga bojlarni kamaytirish, mamlakatda narxlarni barqarorligini ta'minlashda va mahsulot tanlovini kengaytirishda muhim omillar sanaladi [3].

Aholini kambag'allikdan chiqarish va bandligini ta'minlashda xususiy yoki YaTT larni yo'lga qo'yish ham yaxshi natijalarga olib keladi lekin men mavjud bo'lgan korxona va firmalarni ishlab chiqarish hajmini va ulardagi ish o'rinlarini kengaytirish samaraliroq deb hisoblayman. Chunki hozirda faoliyat yuritayotgan va allaqachon oyoqqa turgan korxonalarda ishlash oddiy aholi uchun o'zi noldan boshlab tadbirkorlik yuritishdan va tavakkal qilishdan ko'ra ishonchli hisoblanadi. Bundan tashqari korxonani keng doirada yo'lga qo'yish yangi korxona barpo qilishdan ko'ra qulay va kam xarajatni o'z ichiga oladi.


Men kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha o'z taklifimni bildirmoqchiman. Taklifim shundan iboratki, aholini zamonaviy va hozirgi kunda eng daromadli kasblarga yo'naltirish, chet tillari va kompyuter dasturlari bo'yicha o'qitish va aholining kundalik hayotda duch keluvchi oddiy narsalardan innovatsiyalarni qo'llashni boshlash va ularni rivojlantirishga mo'ljallangan kasb hunar markazlarini mahalla va tuman (shahar) kesimida yo'lga qo'yish. Buni yo'lga qo'ygan insonlarni davlat rag'batlantirishi va markaz ochilishida, uni korxonalar va ish beruvchilar bilan aloqasida, shartnomalar va huquqiy jihatdan ko'maklashishi lozim. Buning afzalligi shundan iboratki, turli soha va yo'nalishlardagi ish beruvchi va ishsizlarni bir joyga yig'ish, ortiqcha vaqt va ovoragarchiliklarni oldini olish va shartnoma asosida har ikki tarafning haq-huquqlarini himoya qilish va ular uchun tanlov imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qilishdir. Bundan tashqari ushbu markaz mehnat resursining sifati va qadrini oshirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Ishchiga "qora ishchi" sifatida emas balki, huquqiy jihatdan himoyalangan kadr sifatida qarashni shakllantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz har jihatdan resurslarga boy davlat hisoblanadi. Mehnat resursi, tabiiy resurslar, sharoit va geografik joylashuv jihatdan ham qulay hisoblanadi. Faqat ushbu resurslarni to'g'ri taqsimlashni yo'lga qo'yish va aniq yo'nalishlarni belgilashda adashmasligimiz zarur. Mavjud mehnat resurslarini chetga chiqib ketishi va o'zimizda esa bazi ko'pgina sohalarda yetarli kadrlar yetishmovchiligi kabi bir-biriga teskari masalalar mavjud. Bularning asosiy sababi aholi malakasi va bilimining yetishmasligi, ta'lim sohasidagi kamchiliklar, istak-xohishlar va iqtisodiy vaziyatdagi tafovutlarning mavjudligi, aholi daromadi va ularning xarajatlari o'rtasidagi farq. Bularni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash, ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilash va to'g'ri daromad taqsimotini yo'lga qo'yish mumkin.

References:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/01/25/poverty/>
2. <https://kun.uz/news/2022/06/03/kambagallikka-qarshi-kurash-hukumat-qayerda-xato-qilyapti-behzod-hoshimov-bilan-suhbat?q=%2Fuz%2Fnews%2F2022%2F06%2F03%2F>
3. "Iqtisodiyot nazariyasi" Umarov I. Raxbar. T. Universitet 2002 y. 7-13-boblar
4. N. Beknazarov "Iqtisodiy nazariyasi". T. 2005 2-bob.
5. O'lmasov A. "Iqtisodiyot nazariyasi" T 2001 y 2-3 boblar.
6. Iqtisodiy bilim asoslari_9. E. Sariqov, B. Xaydarov



INNOVATIVE
ACADEMY